

MA'NAVIYAT — INSON RUHIYATI VA TAFAKKURINI SHAKLLANTIRUVCHI OMIL

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ahmadjonova E'zoza Maxmud qizi

Annotasiya. *Ushbu maqolada ma'naviyatning inson ruhiyati va tafakkurini shakllantirishdagi o'rni, uning shaxsning hissiy holati, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlariga ta'siri hamda mazkur jarayonlar orqali inson tafakkuri va intellektual rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat, ma'naviy ongning ikki darajasi, kundalik daraja, nazariy daraja, hissiy hodisalar, aqliy hodisalar, birlamchi qadriyatlar, inson tuyg'ulari, ko'ngil olami, inson ko'ngli.*

Ma'naviyat inson ongining muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda o'zini tutishi, xulq-atvori va faoliyatini belgilovchi qadriyatlar hamda ijtimoiy mo'ljallar tizimi sifatida namoyon bo'lib, u insonning ruhiyati, hissiy kechinmalari, tafakkuri va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, ma'naviyat inson ruhiyati va tafakkurini shakllantiruvchi, uning hayotiy qarashlari, axloqiy mezonlari va ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi muhim omillardan biridir. Falsafa fanidan ma'lumki, inson ongining kundalik va nazariy darajalari mavjud ya'ni kundalik ong insonning turmush tarzi, mehnat faoliyati, hayotiy tajribasi, ishlab chiqarish ko'nikmalari, odamlar bilan munosabatlari, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanadigan tushunchalar, hayotiy qarashlar, tasavvurlar va barqaror tuyg'ular majmuini ifodalaydi, nazariy ong esa ta'lim olish, bilimlarni egallash, fan va turli ta'limotlarni o'rganish, tabiat va jamiyat hodisalarini ilmiy tahlil qilish hamda umumlashtirish jarayonida shakllanadigan g'oyalar, tushunchalar, baholar, me'yorlar, ilmiy qarashlar, ta'limotlar va nazariyalar tizimidan iborat. Insonning ma'naviy qiyofasi dastlab uning xulq-atvori, odob-axloqi va kundalik munosabatlarida namoyon bo'ladi va shaxsni chuqurroq anglash va baholash jarayonida esa uning bilim darajasi, dunyoqarashi, tafakkuri hamda insoniy fazilatlarini muhim ahamiyat kasb etadi. Inson hayoti va faoliyatida amal qiladigan ibo, hayo, uyat, to'g'rilik, halollik kabi oddiy va birlamchi qadriyatlardan tortib, ezgulik, go'zallik, bag'rikenglik, burch, fidoyilik, o'zlikni anglash, milliy manfaatlarni himoya qilish va vatanparvarlik kabi yuksak qadriyatlarga qadar bo'lgan tushunchalar uning ma'naviy-ruhiy dunyosi va tafakkurining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Kundalik va nazariy ong inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, kundalik ong inson hayotiga uzluksiz va bevosita ta'sir ko'rsatsa, nazariy ong uning fikrlashi, mushohada yuritishi, hodisalarni tahlil qilishi va ularga ongli munosabat bildirishida yanada chuqurroq ahamiyat kasb etadi, inson o'z fikr va qarashlarini asoslash, turli hodisalarni tahlil qilish, muayyan masalalar yuzasidan bahs-munozara yuritish jarayonida nazariy tafakkurini namoyon etadi. Shu bilan birga, kundalik va nazariy ong o'rtasida qat'iy chegara mavjud emas, ular o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini

boyitadi, to'ldiradi va zarur hollarda tuzatib boradi. Ma'naviyatning inson ruhiyati va tafakkuriga ta'sirini uning hissiy va aqliy jihatlari orqali ham ko'rish mumkin. Ibo, hayo, uyat, halollik, mardlik, to'g'riso'zlik, rahmdillik kabi fazilatlar, shuningdek, behayollik, qo'rqqoqlik, yolg'onchilik va bag'ritoshlik kabi salbiy holatlar insonning hissiy dunyosi bilan bevosita bog'liqdir. Urch, vijdon, diyonat, vatanparvarlik va ezgulik kabi yuksak ma'naviy tushunchalarda ham hissiy va aqliy jihatlari o'zaro uyg'unlashadi va mazkur qadriyatlar insonning nafaqat ruhiy holatini, balki uning tafakkuri, qarashlari va xatti-harakatlarini ham shakllantiradi. Masalan, vatanparvarlik tuyg'usi insonning tug'ilib o'sgan joyi, ona tuprog'i, Vatani, milliy urf-odatlarini, ona tili va xalqiga bo'lgan mehr-muhabbatidan boshlanadi. Inson uzoq muddat o'z yurtidan chetda bo'lganida tug'ilgan joyini, uning tabiati, xalqining urf-odatlarini, qo'shiqlari va milliy qadriyatlarini sog'inishi vatanparvarlik tuyg'usining hissiy asoslarini namoyon etadi. Biroq vatanparvarlik faqat hissiy kechinma bilan cheklanib qolmaydi va u insonning Vatan oldidagi burchini anglash, milliy manfaatlarni himoya qilish, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish kabi ongli va aqliy faoliyatida ham namoyon bo'ladi. Insonning hissiy dunyosi nihoyatda nozik va ayni paytda kuchli bo'lib, u shaxsning hayotiy qarorlari va xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, inson go'zallik, ezgulik va adolatdan zavq olishi, adolatsizlik, qo'rqqoqlik yoki xiyonatga nisbatan salbiy munosabat bildirishi orqali o'zining ma'naviy-ruhiy holatini namoyon etadi. Ayrim hollarda inson aynan yuksak ma'naviy tuyg'ular ta'sirida jasorat va fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'ladi. Shu sababli insonning hissiy va aqliy dunyosi bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro ta'sir va uyg'unlikda rivojlanadi. Demak, ma'naviyat inson ruhiyati va tafakkurini shakllantiruvchi muhim omil sifatida shaxsning hissiy kechinmalari, axloqiy qarashlari, dunyoqarashi va aqliy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Insonning ma'naviy kamoloti uning ruhiy va intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yuksak ma'naviy qadriyatlar shaxsning ongli, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ongsizlik haqida gap ketganda, albatta, ularning individual va jamoaviy shakllarini bir-biridan farqlash kerak. Individual ongsizlik doimo konkret, aniq shaklda turli kishilarda har xil namoyon bo'ladi. U shaklan rang-barang, ammo mazmunan sayoz bo'lib jamoaviy ongsizlik esa mazmunan teran, chuqur, lekin shaklan kambag'al bo'lib, jamoaviy ongsizlik g'alayonlar, ommaviy tartibsizlik va vahimalar, ommaviy jo'shkinlik va olqishlar, ko'r-ko'rona sig'inishlar va ommaviy fidoyilik ko'rinishida yuzaga chiqishi mumkin va ba'zan individual tashabbus bir guruh kishining nooqilona, instinktiv harakatiga turtki bo'ladi. Masalan, ko'proq yoshlar orasida bir kishi boshlagan aksilijtimoiy harakatga, jinoiy ishga yonidagilar qo'shiladi, aslida esa, ularda jinoyat qilish niyati bo'lmagan, ammo jamoaviylik instinkti, psixologik jo'shqinlik o'sha vaziyatda bunga undagan: boshqalardan ajralib qolmasligi, boshqalar uni qo'rqqoqlikda ayblamasligi uchun o'sha ishga qo'shilgan. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, guruhij jinoyatlar orasida uyushgan jinoyatchilik psixologik jo'shqinlik oqibati emas. Uyushgan jinoyatchilik asosida ma'lum bir g'arazli maqsadni birgalikda amalga oshirish yotadi, u jamoaviy ongsizlik ko'rinishi emas. Tasodifiy guruhij jinoyat esa jamoaviylik instinktining, jamoaviy arxetipning salbiy ko'rinishlaridan biridir. Jamoaviy arxetipning ijobiy ko'rinishidan biri jangda, o'q yomg'iri ostida o'limdan ko'rqmasdan yovga birgalikda tashlanishdir. Insonning tarixiy xotirasida, ongi ostida "qo'rqqoqlik qilib qochsang, yov hammangni bitta-bitta qirib tashlaydi, yoppasiga hamla kilsang,

bir qisming omon kolasan”, degan tajriba xulosasi muhrlanib qolgan. Tafakkur insonning borliqni anglash va bilishining tizimli hamda samarali shakli hisoblanadi. U g‘oya, tushuncha, fikr, mulohaza va xulosalar orqali obyektiv voqelikning turli jihatlari, shakllari va mazmunini aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlar, o‘zaro ta’sirlar va munosabatlarni aniqlaydi hamda ularni umumlashtirish, tasniflash va tizimlashtirish imkonini beradi va shu jihatdan tafakkur insonning atrof-muhitni anglash, ijtimoiy voqelikni baholash va o‘z faoliyatini maqsadli tashkil etishida muhim intellektual vosita vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, inson tafakkurini uning hissiy-emotsional dunyosidan ajratib o‘rganish ma’naviyatning yaxlit mohiyatini to‘liq ochib berishga imkon bermaydi. Ijobiy his-tuyg‘ular, qalb kechinmalari, mehr-oqibat, rahmdillik va hamdardlik kabi insoniy fazilatlar tafakkurning ma’naviy yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Agar inson tafakkuri yuksak axloqiy va ijobiy qadriyatlarga tayansa, u shaxsning ezgulik, adolat, insonparvarlik va bag‘rikenglik kabi ma’naviy tamoyillarga asoslangan faoliyatini rag‘batlantiradi. Aksincha, nafrat, g‘azab, ochko‘zlik va manfaatparastlik kabi salbiy hissiy holatlar ustun bo‘lgan sharoitda tafakkur inson faoliyatini tajovuzkorlik, zo‘ravonlik yoki shaxsiy manfaatlarni mutlaq ustun qo‘yish tomon yo‘naltirishi mumkin. Demak, insonning hissiy-emotsional va aqliy-intellektual olami o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan yaxlit tizimni tashkil etadi. Ular o‘rtasida qat’iy chegarani belgilash qiyin, chunki hissiyotlar inson tafakkurining shakllanishiga, tafakkur esa hissiy holatlarning mazmunan boyishiga va boshqarilishiga ta’sir ko‘rsatadi va bu murakkab hissiy kechinmalar insonni o‘z tuyg‘ularining sabab va manbalarini anglashga, ularni tahlil qilishga, umumlashtirishga va muayyan xulosalar chiqarishga undaydi. Shu ma’noda, hissiyot tafakkur uchun muayyan bilish ehtiyojini yuzaga keltiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida, voqea-hodisalar, obyektlarning xususiyatlari, ular asosida mujassam bo‘lgan g‘oyalar, ilmiy-texnik yoki badiiy yechimlarning mohiyatini anglash insonda yangi va yuksak hissiy kechinmalarni shakllantiradi. Masalan, shaxmatdagi murakkab kombinatsiyaning mantiqiy yechimini anglash yoki murakkab me’moriy inshootning o‘ziga xos arxitektura va muhandislik yechimini tushunish insonda estetik va intellektual zavq uyg‘otib, muayyan soha bo‘yicha chuqur bilim va tafakkurga ega bo‘lgan mutaxassis esa badiiy, ilmiy yoki texnik ijod namunasining nafaqat tashqi ko‘rinishidan, balki uning ichki mazmuni, mantiqiy tuzilishi va nozik intellektual yechimlaridan ham chuqur ta’sirlanadi. Shunday qilib, insonning hissiy-emotsional va aqliy-intellektual dunyosi ma’naviyatning bir-birini to‘ldiruvchi va o‘zaro ta’sir etuvchi tarkibiy jihatlarni tashkil etadi. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sifatida obyektiv voqelikni ongda aks ettirish, atrof-muhit va ijtimoiy jarayonlarni anglash, mavjud bilimlarni tahlil qilish va yangi xulosalar chiqarish imkonini beradi. U sezgi, idrok va tasavvurga nisbatan voqelikni yanada umumlashtirilgan va mantiqiy shaklda aks ettiruvchi bilish jarayoni hisoblanadi. Tafakkurning fiziologik asoslari inson miyasining murakkab faoliyati va nerv tizimining funksional jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning mazmuni va yo‘nalishi ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya, madaniyat, tarixiy tajriba va ma’naviy qadriyatlar ta’sirida shakllanadi, shu sababli inson tafakkurining rivojlanishida nafaqat biologik, balki ijtimoiy-ma’naviy omillar ham muhim o‘rin tutadi. Umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarning asosiy mazmuni tarixiy taraqqiyot davomida nisbatan barqaror saqlanib qolishi mumkin. Biroq ularni anglash, talqin etish va amaliyotga tatbiq etish shakllari turli tarixiy davrlarda o‘zgarib boradi. Jamiyat

taraqqiyoti bilan birga insonning tafakkur tarzi, bilim va dunyoqarashi, shuningdek, erkinlik, bilish, qadriyat va ma'naviyatga oid ilmiy-falsafiy qarashlari ham rivojlanadi.

Xulosa qilsak, inson tafakkuri va ma'naviyati doimiy rivojlanish jarayonidagi hodisa bo'lib, uning shakllanishida hissiy tajriba, intellektual faoliyat, ijtimoiy muhit va qadriyatlar tizimi o'zaro uyg'unlashadi va inson ma'naviyatining yuksalishi uning hissiy-ruhiy dunyosi va aqliy-intellektual salohiyatining uyg'un rivojlanishiga bevosita bog'liq bo'lib, hissiyot va tafakkurning o'zaro ta'siri shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantirib, uning voqelikka munosabati, qadriyatlarni anglash darajasi va jamiyatdagi xulq-atvorini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Falsafa: qomusiy lug'at. – Toshkent: Sharq, 2024.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
4. Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.